

MILLIY MANFAAT TUSHUNCHASI GEOSIYOSIY TALQINDA.

Qudratov Botir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: qudratovb51@gmail.com

Ne'matov Azizbek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: nematovazizbek834@gmail.com

Ergashev Davron

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: ergashevdavronbek179@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy manfaat tushunchasi va uning geosiyosat talqinida o'rganilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: milliy manfaat, milliy manfaat konsepsiyasi, manfaat tushunchasining ijtimoiy mohiyati, manfaat turlari.

Milliy manfaat – davlat siyosati, xalqaro munosabatlar tizimi, davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotida, umuman, ijtimoiy-siyosiy fanlarda muhim hamda keng tarqalgan tushunchadir. Ko'p hollarda xalqaro munosabatlar doirasining o'zi qamrov jihatidan turli milliy manfaatlarning qarama-qarshiliklarini amalga oshirish jarayonining maydoni hisoblanadi.

O'rta asrlardan boshlab milliy davlatlarning shakllanishi bilan tashqi siyosatda va milliy xavfsizlik masalalariga nisbatan davlat rahbarlari, strateglar va olimlar tomonidan «milliy manfaat» tushunchasi keng qo'llanila boshlandi. Katta va kichik urushlar, aniksiyalar, harbiy ekspeditsiyalar, boshqa davlatlarning ishiga aralashish, mustamlakalarni bosib olish, qurollanish poygasi, diplomatik aloqalarni to'xtatish yoki o'rnatish, savdo ekspansiyal bularning hammasi shu milliy manfaatlarni ta'minlash yoki

himoya qilish maqsadida amalga oshirila boshlangan va hozirgacha amalga oshirilmoqda. Manfaat tushunchasining o'zi unga milliy so'zini qo'shmasdan turib ham ijtimoiy va siyosiy tadqiqotlarda bahsli konsepsiya hisoblanadi. Manfaat inson hayoti va faoliyatining hamma tomonlarini baholay olganligidan, uning uchun bu faqat ehtiyojlarini qondirish emas, balki avvalo ushbu ehtiyojlarning qadrini bilish demakdir. Ushbu muammo ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH olimlari G.Morgentau, Dj.Kennan, U.Lippman, E.Ferniss, Dj.Rozenau hamda fransuz tadqiqotchilari R.Aron, P.Renuvena, J.-B.Dyurozel, F.Brayar, R.Debre va boshqalar tomonidan keng talqin qilindi hamda unga yangicha tus berildi. Milliy manfaat yoki davlat milliy manfaatlari va uning geosiyosiy jihatlari haqida fikr yuritishdan oldin manfaat tushunchasiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. «Manfaat» tushunchasining ijtimoiy mohiyatiga e'tibor berilsa, mavjud adabiyotlarda talqin qilinayotgan nuqtayi nazarlarni quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin¹:

1. Manfaatlari subyektiv tuzilma bo'lib, faqat ma'naviy tabiatga ega.
2. Manfaatlari obyektiv reallikdan kelib chiqqan bo'lib, subyektiv faollikka aloqasi yo'q.
3. Manfaatlari bir butun dualistik bo'lib, bir tomondan obyektiv ikkinchi tomondan subyektivdir.
4. Manfaatlarning ikki turi mavjud bo'lib, ular obyektiv reallikdan va subyektiv faollikdan kelib chiqadi. Ular farqlanadi va ularni yaxlitlashtirish mumkin emas.

Keltirilgan to'rt guruh qarashlarning anchagina umumlashgan shakli A.Zdravomuslovning fikrlarida o'z aksini topgan. Uningcha, manfaatlar faoliyatning natijasiga ega bo'lishga imkon beruvchi amaldagi subyektiv xohish va irodasini ijtimoiy munosabatga maqsadli yo' naltirilgan va belgilangan aloqasidir. Demak, manfaatlar subyektiv-obyektiv munosabatlarining asosidan iborat deyish mumkin. Milliy manfaatlarni shunday tushunish asnosida «shaxsiy manfaatlar», «jamiyat manfaatlari», «qatlam manfaatlari», «milliy manfaatlar», «davlat manfaatlari» kabi atamalarni ishlatish

¹ Jo'raev T., Akobirov S. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik. –T.:Akademiya, 2007, 71b.

mumkin. Agar manfaatlarni sotsial yo' naltirilganligi va mohiyatidan kelib chiqib tavsiflaydigan bo'lsak, ularni «iqtisodiy», «siyosiy», «ma'naviy» deb bo'lish mumkin. U holda sotsial reallik va bevosita ehtiyojlarga mos ravishda manfaatlarni «haqiqiy» va «yolg'on», «o'tkinchi» va «doimiy» manfaatlarga ajratish mumkin.²

Ushbu mulohazalardan quyidagi xulosalarni o'rta tashlash mumkin:

- ◆ manfaatlarni – shaxslar, sotsial guruhlar, qatlamlar, millat va xalqlarning yo'naltirilgan faoliyatining sotsial reallikdagi in'ikosidir.
- ◆ manfaatlarni jamiyatda kechayotgan jarayonlarga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazuvchi, shaxslar sotsial faoliyatining rag'batlantiruvchi omillaridir.
- ◆ turli yo'nalishdagi manfaatlarning to'qnashishi, ularni sotsial jarayonlarga yo'nalganligini belgilab, jamiyat tanlagan yo'lni yaqqol ko'rsata oladi.
- ◆ manfaatlarni anglangan ehtiyoj sifatida, xalq ommasini faollikka olib keluvchi real kuch bo'lib yuzaga keladi.

Milliy manfaatlarni tushunchasi ham xorijiy, ham mamlakatimiz siyosiy fanida bahsli bo'lib qolmoqda. Ko'pgina hollarda tortishuvlar sababi nafaqat tushunmovchilik asosida, balki bildirilayotgan fikrlarda yetarli asos bo'lmaganligidadir. Misol tariqasida ingliz tilidagi «national interest» iborasi – «xalq manfaati», ya'ni davlatga uyushgan xalqning manfaati ma'nosiga mos bo'lib, o'zbek tilida «davlat manfaatlari» yoki «milliy manfaatlarni» atamasi orqali ifodalanilsa, mutanosiblik kasb etgan bo'lardi. «Davlat» va «milliy» tushunchalarining sinonimlashuvi, uyg'unlashgan ma'no kasb etishi, ko'proq Yevropadagi monoetnik davlatlarning tarixiy birligidan kelib chiqadi va G'arb siyosiy fanida milliy manfaatlarni tushunchasi hech qachon etnik mazmun kasb etmagan. Amaliyotda manfaat iroda, faoliyat va vosita orqaligina amalga oshadi. Manfaat va siyosat o'rtasidagi aloqani quyidagicha aniqlash mumkin: siyosat bu - ijtimoiy guruhlar, partiyalar, davlatlarning rang-barang manfaatlarni ifodalanishining muhim shaklidir. Siyosiy kurash ushbu manfaatlarning qondirilishi uchun olib boriladi. Manfaatlarga, o'z navbatida, ma'lum bir maqsadlar shakli berilmagan, mos vositalar va

² O'sha manba 75.b

amaliy siyosiy faoliyat bilan mustahkamlanmagan bo'lsa, ular amalga oshmaydi. D.Noyxterlaynning ta'kidlashicha, jamiyat manfaatlari va milliy manfaatlar bir-birini istisno etmasligini tan olgan holda ularni farqlash mumkin. Jamiyat manfaatlari birinchi navbatda, jamiyatning ichki farovonligi bilan bog'liq va u qonunlar majmuasi bilan himoya qilinadi hamda saylangan rasmiy shaxslar qonunlarning bajarilishini nazorat qiladi. M.V. Ilin aytganidek, milliy manfaat hududiy suveren davlat va fuqarolik jamiyatining bir butunligi sifatidagi millat manfaatidir. Davlat manfaati va fuqarolik jamiyati manfaatiga kelganda, ular nafaqat mohiyat jihatidan milliy manfaatlar bilan bog'liq, balki ma'lum darajada, uning ma'nosini ham belgilaydi. Shuning uchun ham «milliy davlat manfaatlari» shaklidagi tushunchani qo'llaydigan mualliflar bilan kelishmaslikning iloji yo'q. Geosiyosatda milliy manfaat yoki davlat manfaatini «davlat milliy manfaati» shaklida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Chunki geosiyosatda davlat «tirik organizm» yoki «mavjudot» sifatida qaralib, o'z makonini kengaytirishga intiladi. U ma'lum siyosiy kuchlar manfaatlari tomonidan vujudga keltiriladi va ana shu manfaatlar qondirilishiga qaratiladi. Ushbu manfaatlar majmuasini o'zida mujassamlashtirib, siyosiy tizim, jamiyatning iqtisodiy ahvoli, millatlararo munosabatlar xarakteri, demografik va ekologik holat, inson omilining holati (ma'lumoti, madaniyati, an'analari), xalqaro maydondagi o'rni kabi omillarning ta'siri ostida rivojlanadi va mukammallashadi. Bir so'z bilan aytganda, miqdoriy va makoniy xususiyat kasb etadi.

Har qanday davlatning asosiy milliy manfaati xavfsizlikni ta'minlash, millat va xalqning o'zligini saqlashdan iboratdir. Ushbu holat milliy manfaatning nafaqat tashqi jihatlarida, balki ichki jihatlari bilan ham bog'langan holda namoyon bo'ladi. Davlatning eng oliy manfaati fuqarolarning shaxsiy manfaatlarini davlatning umumiy maqsadi sari birlashtirishdan iboratdir. Davlat va jamiyat xavfsizligi bu birlashishning darajasiga bog'liq bo'ladi. «Daraja»ning o'zi esa har bir jamiyatning, har bir davlatning madaniy o'ziga xosligiga bog'liqdir. Davlat arboblarning donoligi va oqilligi rivojlanishning har bir tarixiy davrida jamiyatning real hayotiy ehtiyojlari darajasini anglab etish va shu asosda yagona davlat manfaatlarini ishlab chiqishi bilan belgilanadi. Tashqi olamga

nisbatan munosabatlarda davlat milliy manfaatining o'zni – aynan millatning o'zligini saqlash, davlat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. «Milliy manfaat»larning barcha turlarining asosini, deb yozadi amerikalik siyosatshunos R.Osgut, yashab qolish yoki o'zligini saqlash tashkil etadi. Ularning maqsadlariga asoslangan boshqa manfaatlari esa, millatning yashab qolishiga bog'liq bo'ladi. Bunga davlatning hududiy yaxlitligini, suverenitetini va boshqalarini qo'shish lozim, ammo bular muhim bo'lsa-da, umummanfaatlarning tarkibiy qismlari bo'lib, ular o'zgarmasdir³. Davlat milliy manfaatlarining yuqorida keltirilgan tasniflaridan mazmun va mohiyatan unchalik ham farq qilmaydigan, lekin keyingi vaqtlarda ko'p qo'llaniladigan tasniflarga ham to'xtaladigan bo'lsak, unda quyidagi ketma-ketlikni ko'rishimiz mumkin:

- ◆ hayotiy muhim manfaatlar. Millatning madaniy-tarixiy birlik sifatida o'zini saqlab qolishi, milliy qadriyatlar, jamiyat va davlat institutlarining himoya qilinishi, suverenitet hamda shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iborat anglangan ehtiyojdir.

- ◆ muhim manfaatlar. Ma'lum vaqt oralig'ida hal qilinishi lozim bo'lgan maqsadlar.

- ◆ chekka manfaatlar. Ayni vaqtda unchalik muhim bo'lmagan, lekin istiqbolda rejalashtirilgan maqsadlar⁴.

Yuqorida manfaatni anglab yetilgan ehtiyoj deb aytib o'tgan edik. Ushbu ehtiyoj har qanday manfaatni obyektiv asosini tashkil etadi. Milliy manfaatning bu jihati davlatning dunyo va mintaqadagi geosiyosiy joylashuvidagi va rivojlanishidagi moddiy hamda siyosiy ehtiyojlariga asoslanadi. Davlatning geosiyosiy holati bilan bog'liq milliy manfaatlarining turg'unligi esa, uning ushbu manfaatni obyektiv tomonini aks ettirishida

³ Баттлер А. Контуры мира в первой половине XXI века и чуть далее // Мировая экономика и международные отношения, 2002,7-9б.

⁴ Jo'raev T., Akobirov S. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik. –T.:Akademiya, 2007,59b.

va davlatning ijtimoiy-siyosiy tabiatini o'zida mujassamlashtirganligidadir. Davlatning geosiyosiy holati o'z navbatida quyidagilar bilan belgilanadi:

- ◆ davlatning jahon sahnasidagi geosiyosiy o'rni, uning ittifoqdoshlari yoki raqiblari;
- ◆ xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni, tashqi bozorga bog'liqlik darajasi, xom-ashyo, energetika va boshqa zaxiralari;
- ◆ xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni, unda raqobat yoki hamkorlik, kuchga egalik darajasi.

Vaqt o'tishi bilan ayrim ehtiyojlarning o'zgarishi va shunga mos ravishda muayyan manfaatlar hamda davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalari ham o'zgarib boradi. XVII-XIX asrlarda taraqqiyotning yangi sifatiiy omillari yuzaga kelishi bilan, milliy manfaatlarining doimiyliigi va umrboqiyliigi to'g'risidagi tasavvurlar intihosiga yetdi. Haqiqatdan ham, ma'lum bir milliy manfaatlar mazmunini belgilashda obyektiv reallikda mavjud barqaror hamda o'zgaruvchan o'lchamlardan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, totalitar davlat uchun jamiyat va iqtisodning barcha sohalarini qattiq nazoratga olish xosdir. Bunda tahdidsiz va barqaror rivojlanish to'liq avtarkiya asosida o'z resurslari orqali ta'minlashi lozim. Demokratiya va bozor iqtisodiyotiga o'tish esa o'z navbatida, totalitar jamiyatda milliy xavfsizlikka tahdid sanalgan ochiqlikka intilishga, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishga, iqtisodiy sohada boshqa davlatlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishga olib keladi. Jamiyat hayotida va taraqqiyotida o'ta muhim masalalar bo'yicha ko'pchilikning bir to'xtamga kelishi yoki kelmasligini ifodalovchi milliy manfaat formulasini topish juda mushkul. Masalan, buni XIX asr o'rtalarida AQSHdagi jamiyat inqirozida ko'rish mumkin. Bir davlatda rasman ikki xil iqtisodiy taraqqiyot - industrial shimol va agrar janub yuzaga keldi hamda ushbu taraqqiyot yo'nalishini o'zida aks ettirgan turlicha milliy manfaatlar shakllandi. AQSHda bu ziddiyat fuqarolar urushi bilangina hal qilindi, ya'ni industrial Shimol janubdagi separatistik kayfiyatni parchaladi va mamlakat birligini saqlab qoldi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, umumiy ma'noda milliy manfaatning shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, konfessional va geosiyosiy omillar muhim rol o'ynaydi. Milliy manfaat geosiyosiy kategoriya sifatida qaralganda esa, geosiyosiy o'lcham birinchi o'ringa chiqib, ya'ni ma'lum hududiy birlikka ega bo'lgan kuch ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va konfessional xususiyatlarni o'zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'raev T., Akobirov S. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik. –T.:Akademiya, 2007, 71b.

2. Jo'raev T., Akobirov S. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik. – T.:Akademiya, 75.b

3. Баттлер А. Контуры мира в первой половине XXI века и чуть далее // Мировая экономика и международные отношения, 2002, 7-9б.

4. Jo'raev T., Akobirov S. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik. –T.:Akademiya, 2007, 59b.

5. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).

6. Мамаражабов, В. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKISTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 895-900.